Tadbirkorlikni subyektlarini eksportini qo'llab-quvvatlanishi iqtisodiyotni muttasil rivojlanishi, xo'jalik aloqalarini tuzatish, raqobatni rivojlantirish va iste'mol bozorini to'ldirish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy maqsadlarni ham ta'minlamoqda. Eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 barobar ko'paytirish, Yevropa davlatlariga GSP+ va boshqa tizimlari doirasida tayyor va texnologik mahsulotlar eksportini kengaytirish. Xalqaro standartlar joriy qilingan korxonalar sonini 10 barobarga oshirish va ular sonini 5 mingtaga yetkazish. Dunyoning 50 ta nufuzli brendlari bilan maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil qilish.

TADQIQOT NATIJALARI

Rivojlangan davlatlar tajribasini tahlil qiladigan bo'lsak, bu borada Amerika Qo'shma Shtatlari yaqqol pesh-qadamdir. AQShda tadbirkorlik subyektlari eksportini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimli ravishda yo'lga qo'yilgan. AQShning federal darajada eksportini qo'llab-quvvatlash sohasidagi tashkiliy va boshqaruvning institutsional tizimi tegishli organlarini o'z ichiga oladi.

AQShda tadbirkorlik subyektlari eksportini har tomonlama qo'llab-quvvatlash tizimidagi asosiy davlat muassasasi AQSh Savdo vazirligi hisoblanadi. Bu borada AQSh tijorat xizmatining asosiy vazifalari belgilab olingan (1-rasm).

axborot va maslahat yordami, shu jumladan amerikalik eksportchilar uchun xorijiy mamlakatlardan borozlariga chiqish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish

tijorat diplomatiysi (huquqiy himoya, siyosiy va diplomatik qo'llab-quvvatlash, shu jumladan xalqaro va milliy kim oshdi savdosi paytida)

tarmoq tadbirlarini tashkil etish

chet el ishbilarmon doiralari (Business Matchmaking) vakillari bilan Amerika kompaniyalari, reklama ko'mak dasturlari doirasida tovarlar va xizmatlarni reklama qilish;

Amerika eksportchilariga ma'lum bir mamlakatda bozorning imkoniyati va xususiyatlari to'g'risida yetarli tushuchaga ega bo'lish va rivojlanishni boshlash yoki davom ettirish to'g'risida qaror qabul qilsih imkonini beradigan marketing tadqiqotlarini o'tkazish

1-rasm: AQSh tijorat xizmatining asosiy vazifalari [4]

Amerika Qo'shma Shtatlari qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish Qishloq xo'jaligi vazirligining Tashqi qishloq xo'jaligi xizmati tomonidan qo'llab-quvvatlanadi, u qishloq xo'jaligi, baliqchilik va o'rmon mahsulotlarining milliy eksportchilariga xizmat ko'rsatadi. AQShning federal darajada eksportini qo'llab-quvvatlash sohasidagi tashkiliy va boshqaruvning institutsiional tizimi.

Bu xizmatning chet el vakolatxonasi 171 ta mamlakatdagi 90 ga yaqin vakolatxonani o'z ichiga oladi. Ular AQShning boshqa xorijiy hukumatlari, birinchi navbatda, AQSh tijorat xizmati bilan yaqin hamkorlikda ishlaydi. Chet eldagи qishloq xo'jaligi xizmatining asosiy vazifalari orasida yangi eksport qiluvchilarga axborot, konsalting



va marketing xizmatlarini ko'rsatish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini savdo va siyosiy qo'llab-quvvatlash, bozor ma'lumotlarini yig'ish va tahlil qilish kiradi. Bu xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar tomonidan tadbirkorlik subyektlariga o'z faoliyatida mahsulotlarni eksport qilishlariga ko'maklashishi bilan birgalikda, eksportni rivojlantirishda keng ko'lamli vositalar va dasturlardan foydalanishni ham talab qilinadi (2-rasm).

Bozorga kirish dasturi (Market Access Program)

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilishni rag'batlantirishni moliyalashtirish

Tashqi bozorni rivojlantirish dasturi (Foreign Market Development Program)

- uzoq muddatli qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish dasturlarini ishlab chiqish, foyda keltirmaydigan fedreal qishloq xo'jaligi ittifoqlari va uyushmalarini moliyalashtirish

O'tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlar uchun bozorni rivojlantirish dasturi (Emerging Markets Program)

- ushbu mamlakatlar guruhiга yo'naltirilgan eksportchilarni maxsus qo'llab-quvvatlash

Chet ellik xaridorlarga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini namoyish etish dasturi(Quality Samples Program)

- o'tish davri iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlarning chet ellik xaridorlariga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini namoyish etish uchun AQSH savdo tashkilotlarini moliyalashtirish

Maxsus ekinlarni eksport qilish bo'yicha texnik yordam dasturi (Technical Assistance for Specialty Crops)

- sanitariya, fitosanitar va texnik to'siqlarni bartaraf etish

2-rasm: AQShda qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini qo'llab-quvvatlash bo'yicha dasturlarning tanlangan turlari

AQSh davlat eksportini qo'llab-quvvatlash tizimidagi yetakchi muassasalardan biri sifatida kichik biznes boshqaruvi Davlat qo'mitasi –AMB hisoblanadi (kichik biznes boshqaruvi)[5]. Ularning ekspertlari mamlakatning ko'plab sanoat markazlari va ma'muriy tumanlarida bevosita korxonalar, sanoat birlashmalari va savdo palatalari bilan ishlaydi. AMB moliyaviy va boshqa eksportni rag'batlantirish vositalaridan mustaqil ravishda va boshqa tashkilotlar bilan, birinchi navbatda, tijorat xizmati va Eksimbank bilan hamkorlikda faoliyat olib boradilar. Kichik biznes ma'muriyati deyarli barcha Qo'shma Shtatlarni qamrab olgan va qaysi xizmat bo'limidan qat'iy nazar, kichik va o'rta biznes uchun xizmatlarning mavjudligini ta'minlaydigan 900 ta joyda 63 ta kichik biznesni rivojlantirish markazlari va yuqori darajada rivojlangan tashqi iqtisodiy maslahatchilar tarmog'iga ega.

AMB o'z faoliyatida quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshiradi:

- eksport ko'magi olishga muhtoj kichik korxonalarni aniqlash;
- kichik biznesni tashqi bozorga muvaffaqiyatli kirishga tayyorlash;
- istiqbolli eksport bozorida korxona uchun ishbilarmonlik aloqalarini va boshqa shart-sharoitlarni tashkil etish;
- eksportni rivojlantirishning barcha vositalaridan foydalangan holda korxonalarni qo'llab-quvvatlash.



Shu bilan birgalikda, tadbirkorlik subyektlari tomonidan, asosan, mahsulotlar elektron savdo maydonchali orqali xorijiy davlatlarga eksport qilinadi. AQShda bugungi kunga kelib, raqamli platformalar juda yaxshi rivojlangan. Taraqqiy etgan davlatlardan yana biri - Yaponiyada ham tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash milliy tizimining asosiy xususiyati - davlat boshqaruvi organlari tomonidan markazlashtirish va nazarat qilishning yuqori darajada rivojlanganligidir. Yaponiya Iqtisodiyot, savdo va sanoat vazirligi ushbu sohadagi barcha tadbirlarning asosiy boshqaruvchi agentligi va muvofiqlashtiruvchisi vazifasini bajaradi [6].

Yaponiya kompaniyalarini xorijga eksport qilish va investitsiyalarni rag'batlantirish milliy tizimida ijro etuvchi darajadagi asosiy davlat muassasasi 1958-yildan buyon faoliyat ko'ssatib kelayotgan Yaponiya Tashqi savdo tashkiloti (JETRO) hisoblanadi [7]. Eksport kreditlarini sug'urtalash sohasidagi asosiy muassasa Yaponianing Sug'urta, eksport va investitsiya korporatsiyasi (Nippon Export & Investment Insurance - NEXI) hisoblanadi [8]. Korporatsiya raqamli iqtisodiyot texnologiyalari orqali o'z mijozlariga, xususan, quyidagi xizmatlarni taklif qiladi: eksport kreditlarini sug'urtalash, shu jumladan, kichik va o'rta biznes uchun, soddalashtirilgan tizim asosida eksportni kompleks sug'urtalash, eksport mahsulotlarini yetkazib berishni sug'urtalash, tabiiy resurslar va energetika sohasidagi investitsiya loyihalari va kreditlarini sug'urtalash va boshqalar. Osiyoda rivojlangan davlatlardan biri - Janubiy Koreya Respublikasida esa, eksportni qo'llab-quvvatlash sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish 1962-yilda tashkil etilgan KOTRA (Korea Trade-Investment Promotion Agency) Davlat agentligi tomonidan amalga oshiriladi va bu Koreya eksportining kengayishiga hissa qo'shadi [9].

Bugungi kunda KOTRA ning 86 ta mamlakatda 126 ta vakolatxonasi mavjud. Agentlik korxonalarga o'z mahsulotlari va xizmatlarini xorijiy ko'rgazma va bozorlarda namoyish etishda, shuningdek, savdo muzokaralarini olib borishda va mumkin bo'lgan sheriklarni topishda yordam beradi. KOTRA doirasida dunyoning turli mamlakatlarida ko'p sonli biznes markazlari faoliyat ko'satmoqda. Janubiy Koreya Respublikasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, shuningdek, eksport qilishni raqamli platformalar orqali kengaytirishga ko'mak ko'satilmoqda. Ushbu maqsadga erishish bo'yicha chora-tadbirlar juda ham keng qamrovli bo'lib, quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- 1) Koreya mahsulotlarini to'g'ridan-to'g'ri tashqi bozorlarga olib chiqish uchun sharoit yaratish;
- 2) mamlakat ichidagi institutsional, tashkiliy va reklama ko'magi;
- 3) qishloq xo'jaligi eksportchilarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali eksport bo'yicha kreditlashni rivojlantirish.

Dasturni amalga oshirish bo'yicha ishlar markazi va mintaqaviy darajada olib boriladi. Hukumatda asosiy vakolat ma'muriy va muvofiqlashtiruvchi organlar Koreya Respublikasining Qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat vazirligi shuningdek, Koreya Agro-Fisheries Trade Corp bir quyi tashkilot sifatida faoliyat olib boradilar [10]. Rivojlangan davlatlardan Isroiil davlatida ham eksportni qo'llab-quvvatlash faoliyati Xalqaro hamkorlik instituti tomonidan boshqariladi. Xalqaro hamkorlik instituti xususiy sektor tomonidan notijorat tashkilot sifatida 1958-yilda tashkil etilgan.

Institut bir qator muhim yo'nalishlar bo'yicha keng turdag'i quyidagi xizmatlarni taqdim etadi:

- eksportchilarga xalqaro ko'rgazma va yarmarkalarda ishtiroy etish uchun zarur bo'lgan barcha xizmatlar;
- turli o'quv tadbirlari (xalqaro marketing, huquqiy va moliyaviy jihatlar, xalqaro transport va logistika, bozorni o'rganish bo'yicha kurslar, seminarlar);
- iqtisodiy ma'lumotni tahlil etish va nashr qilish;
- maqsadli mamlakatlarda Isroiil eksporti bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish;
- eksport qiluvchilarni axborot manbalari bilan ta'minlash, shu jumladan, onlayn ma'lumotlar banklari, biznes kutubxonasi, axborot bo'yicha mutaxassislar va Isroiil tijorat attashelari va iqtisodiy, savdo hamda boshqa xalqaro tashkilotlar vakillari bilan aloqalar;
- eksport qiluvchilar uchun, masalan, savdo shartnomalari va qoidalari bilan bog'liq barcha masalalar bo'yicha yechimlarni taqdim etish, shu jumladan, dunyo bo'ylab bojxona xizmatlari tekshiruvlari, bojxona tariflari, eksport va importning qonuniyligi, xalqaro yuk tashish va logistika, dengiz va havo sug'urtasi, to'lov usullari, xalqaro marketing va hokazo [11];
- uni rivojlantirish va targ'ib qilish bo'yicha xizmatlar;
- chet elda biznes yuritish - biznes sheriklarini aniqlash, shuningdek, xalqaro tenderlar va moliyaviy imkoniyatlarni aniqlash dasturlaridir.



So'nggi o'n yilliklarda raqamli texnologiyalar sanoati rivojlangan mamlakatlarda tez tarqaldi va ko'plab maqsadlarda qo'llanilmoxda. Masalan, raqamli platformalar orqali eksport qilish tashqi aloqa jarayonlarini yanada osonlashtirish, ma'lumotni osongina saqlash va qayta ishlash, biznes jarayonlarini raqamlashtirish yoki Internet orqali ma'lumotlarga kirishni kengaytirishda foydalaniadi. Raqamli platformalar bilan bog'liq bo'lgan asosiy jihatlardan biri, firmalar va mamlakatlarning ushbu yangi texnologiyalar bilan bog'liq imkoniyatlaridan samarali foydalanish qobiliyatları bilan ajralib turishini tushuntirishdir. Raqamli platformalarning bugungi kunga kelib rivojlanishi AQSh iqtisodiyotida eksport jarayonlarining sezilarli darajada oshishiga olib kelgan.

Raqamli platformalardan foydalanish orqali ishlab chiqarilgan mahsulotning tashqi bozorga moslashuvchanligi tegishli kompaniyaning innovasiyani muvaffaqiyatli joriy qilgani yoki qilmaganligiga bog'liq.

Bu borada rivojlangan davlatlar tajribasiga e'tibor beradigan bo'lsak tadbirdorlik subyektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlovchi bir qancha tashkilotlar faoliyat yuritmoqda (2-jadvalga qarang).

2-jadval: Tadbirdorlik subyektlari eksportini har tomonlama qo'llab-quvvatlovchi tashkilotlar (Rivojlangan davlatlar misolida)

Mamlakat	Agentlik	Hududiy ofislar soni	Shtat	Tashkil topgan yili
AQSh	Manufacturing Extension Partnership (MEP)	60 ta hududiy markaz	50	2000
Avstraliya	Enterprise Connect	12 ta markaz	250	2008
Kanada	Industrial Research Assistance Partnership (IRAP)	150	220	1962
Germaniya	Fraunhofer Institutes	57 ta institut	1,8	1949
Germaniya	Steinbeis Centers	750 ta markaz	4,6	1971
Yaponiya	Public Industrial Technology Research Institutes (Kohsestushi Centers)	262 ta ofis	6,000+	1902
Buyuk Britaniya	Manufacturing Advisory Service (MAS)	Hududiy markaz	150	2002
Manba: "O'zbekiston–2035" ikkinchi xalqaro forumi O'zbekiston Respublikasining 2035-yilgacha rivojlanish strategiysi konsepsiysi. 2019-yul 18-fevral.				

Jadval ma'lumotlari ko'ra, rivojlangan davlatlarda tadbirdorlik subyektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlovchi bir qancha tashkilotlar mavjud. Bu, o'z navbatida, tadbirdorlik subyektlari uchun zarur bo'lgan har qanday muammolarni bartaraf etishga ko'mak beradi.

Transchegaraviy elektron savdoni o'zgartirish va modernizatsiya qilish muhim yo'nalishga aylandi. AQSh qishloqlarida onlayn chakana savdo hajmi 247 milliard AQSh dollariga yetdi, bu o'tgan yilga nisbatan 19,1%ga ko'pdir. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining onlayn chakana savdosи 57,7 milliard AQSh dollarini tashkil etgan holda o'tgan yilga nisbatan 27%ga ko'paydi.

Bojxona transchegaraviy elektron tijoratni boshqarish platformasi orqali tovarlarning chakana import va eksportining umumiyligi qiymati 27,07 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi. Bu esa o'tgan yilga nisbatan 38,3%ga oshgan holda 24 ta yangi transchegaraviy elektron tijorat tajriba zonalari qo'shildi va 2019-yilning oxiriga qadar tajriba zonalarning umumiyligi soni 59 taga yetdi [12].

2020-yilning II yarmida dunyodagi pandemiya tufayli o'zini izolyatsiya qilish rejimida mutaxassislar global bozorida internet savdo kutilmagan sur'atlarda o'sishini taxmin qilishgan edi, ammo bu segmentda keskin o'sish kuzatilmadi.

Bunday holat ikkita muhim omilga bog'liq:

- Dunyoning aksariyat davlatlari temir yo'l logistikasini qisman qoldirib, xalqaro havo transportini to'xtatib qo'ydilar. Shu sababli, internetdan sotib olinan mahsulotlarni egasiga yetkazish uchun tarqatish markaziga yetkazib berish yoki olib kelish imkoniyati bo'lmadi.
- Ushbu davrda, ya'ni pandemiya davrida iste'molchilar uzoq muddatli mahsulotlarga sarf-xarajatlarni qisqartirishdi.

Jahon elektron tijorat bozori 2019-yilda 17,9%ga o'sdi va 3,46 trln. AQSh dollariga yetdi. Xitoy va Amerika Qo'shma Shtatlari elektron tijorat bozorida dunyoning yetakchilari bo'lib, bozorning taxminan 40%ini egalladilar (3-rasm).



3-rasm: Jahon elektron tijorat bozorining dinamikasi [15]

Xitoy global elektron tijorat bozorida etakchilik qilishda davom etmoqda, bu butun dunyo bo'ylab elektron tijorat chakana savdosining 46,3 foizini tashkil qiladi va 2022-yilda jami onlayn savdolar 2,8 trillion dollardan oshadi. Shuningdek, u 842,1 million kishi bilan dunyodagi eng ko'p raqamli xaridorlarga ega, bu dunyodagi jami xaridorlarning 39,4 foizini tashkil qiladi.

AQShning elektron tijorat bozori 2022-yilga kelib 904,9 milliard dollardan oshishi kutilmoqda, bu Xitoyning uchdan bir qismidan sal ko'proq. Xitoy va AQShdan keyin uchinchi yirik elektron tijorat bozori Buyuk Britaniya bo'lib, u elektron tijorat chakana savdosining 4,8% ni tashkil qiladi. Buyuk Britaniyadan keyin Yaponiya (3%) va Janubiy Koreya (2,5%) [13].

Elektron tijorat iste'molni rag'batlantirish, tashqi savdoni barqarorlashtirish, qashshoqlikni yengillashtirish, bandlikni kengaytirish va sanoatning raqamli o'zgarishini rag'batlantirishga faol hissa qo'shdi.

Mamlakatimiz, asosan, Xitoy davlati bilan eksport aloqalarini olib boradi. Bugungi kunda Xitoyda elektron tijorat keng rivojlanmoqda. Xitoyda qishloq elektron tijorati keng miqyosda professional rivojlanish bosqichiga o'tdi.

Xalqaro bozor nuqtai nazaridan Xitoy beshta qit'aning 22 ta mamlakati bilan elektron tijorat bo'yicha ikki tomonlama hamkorlik mexanizmini o'rnatdi.

Ipak Yo'li elektron tijorat savdo hamkorligining yangi kanaliga aylanib, sherik mamlakatlarning raqamli iqtisodiyoti rivojlanishini rag'batlantirib, dunyo miqyosida tobora ommalashib bormoqda. Elektron tijoratning o'ziga xos shakllari mavjud bo'lib, ularning bir qator farqlari mavjud.

Jahon bozori, shu jumladan, Xitoyning elektron tijorat bozori ikki shaklda rivojlanmoqda (3-jadvalga qarang).

3-jadval: Xitoyda elektron tijorat shakllari

Internet do'konlar	Internet savdo rastalari
<p>Sizni qiziqtirgan mahsulot yoki xizmat haqidagi ma'lumotlarni ko'rishingiz va buyurtma berishingiz mumkin bo'lgan web-saytlar.</p> <p>Taklif etilayotgan assortimentlar soni juda xilma-xil.</p> <p>Bu onlayn savdo maydonchalarining eng ko'p sonli turi hisoblanadi</p>	<p>Agregator saytlar yoki har xil mahsulot guruhlari uchun turli etkazib beruvchilardan (oflayn va onlayn) ma'lumotlarni avtomatik ravishda to'playdigan va qayta ishlaydigan ixtisoslashgan vosita-chilar. Shuning uchun hozirda ishlab chiqaruvchilar yoki etkazib beruvchining web-saytiga kirmsadan buyurtma berishimiz va sotib olishimiz mumkin (Masalan, Alibaba, Taobao, Aliexpress)</p>

Xitoyda internet do'konlari, asosan, ba'zi sanoat yoki onlayn supermarketlarga ixtisoslashgan. Masalan, oziq-ovqat mahsulotlari uchun "MissFresh", "Wolmart", "7Fresh", "Chunbo" va elektronika uchun "Suning", "Goum", "Suyaomi" va boshqalar mavjud. G'arb bozorlaridan farqli o'laroq, ushbu format Xitoyda keng tarqa-lgan, bu taniqli "Alibaba Grup" va uning filiallari bo'lgan "Taobao", "Timoll", "Aliexpress", "1688.com", bulardan, tashqari "Pinduoduo", "JD.com", "little Red book", "VIP" va boshqalar.



Internet texnologiyalarining rivojlanishi va ommalashishi Xitoy va Rossiya o'rtasidagi transchegaraviy savdoni yangi bosqichga olib chiqdi. 2010-yil aprel oyida "AliExpress" rasmiy ravishda ishga tushirildi.

Transchegaraviy elektron tijorat – bu Internet tufayli xalqaro tijoratda paydo bo'lgan jadal rivojlanayotgan tarmoq hisoblanadi.

Transchegaraviy elektron tijoratda ham bir qator xatarlar mavjud, ular quyidagilardan iborat:

■ **Firibgarlik:**

- xaridor elektron platforma orqali to'lovnini amalga oshirib, agar o'zaro kelishuvlar bo'lmasa, tovari olgandan keyin turli sabablarga ko'ra to'lovnini orqaga qaytarib oladi;
- sotuvchi to'lovnini olgandan so'ng, tovari jo'natmaydi yoki ichi bo'sh jo'natma (posilka) yuboradi.

■ **Logistika:**

- xalqaro yetkazib berish xizmatining narxi qimmat, kun vaqt talab qiladi va ko'pincha tovar yo'qolib qoladi.
- ba'zi mintaqalarda logistika rivojlanmagan, shuning uchun xususiy yuklarning xalqaro logistika narxi ba'zan tovar qiymatidan oshib ketadi.

■ **Xaridor mamlakatidagi qoidalar:**

- mijoz mamlakatiga olib kirishda importchi ichki ishlab chiqaruvchidan talab qilinadigan murakkab bojxona qoidalari va hujjalarning mavjudligi;
- import qiluvchi va ishlab chiqaruvchi uchun noma'lum sabablarga ko'ra tovarlarni musodara qilish, yo'q qilish yoki qaytarish.

■ **Saqlash:**

- xaridor mamlakatida tovarlarni saqlash uchun mos bojxona yoki oddiy omborni topish qiyin.
- saqlash paytida tovarlarning yo'qolishi, noto'g'ri saqlanganligi sababli tovarlarning sifatiga zarar yetka-zilishi, miqdori, sifati va boshqa texnik ma'lumotlarning yetishmasligi.

■ **Huquqiy tartibga solish:**

- Jahon bozorida iste'molchilar huquqlari qonun bilan himoya qilinadi va ushbu qonunlar rivojlanmagan yoki rivojlanayotgan mamlakatlardan farqli o'laroq ishlaydi;
- transchegaraviy elektron tijoratning barcha ishtirokchilari (ishlab chiqaruvchi/eksport qiluvchi va import qiluvchi/ operator) uchun "Eng katta xatar", bu intellektual mulk huquqlarining buzilishi hisoblanadi.

2020-yil 26-aprel holatiga ko'ra, Xitoy bojxonasida 8214 ta partiya kontrafakt mahsuloti olib qo'yilgan. Bu Xitoyda intellektual mulk huquqlarining bevosita buzilishini ko'rsatadi. Ulardan 7724 ta yuk rasmiy ravishda olib qo'yilgan, chunki topilgan soxta buyumlar soni 1 million 492 ming donadan oshgan.

Shuningdek, bir necha noaniqliklar ham mavjud:

- davlat siyosatidagi o'zgarishlar;
- platformadagi siyosatning o'zgarishi;
- iqtisodiy va moliyaviy sanksiyalar;
- ishtirokchi mamlakatidagi urush va epidemiya.

Transchegaraviy elektron tijoratda import rejimiga bojxona rasmiylashtiruvining modeli:

- **SS modeli** (ya'ni S2S, Xitoyda keng tarqalgan "Daygou" modeli) – ikki shaxs o'rtaida buyurtma bo'yicha sotib olish.
- **VS modeli** (ya'ni V2S, Xitoyda "Xaygou" modeli) – transchegaraviy elektron savdo.
- **VS-9610 modeli** (ya'ni V2S) – 9610 bojxona nazorati kodi bo'yicha transchegaraviy elektron tijorat.
- **VVS-1210 modeli** (ya'ni V2S) – bojxona to'lovchilari to'langunga qadar bojxona omborida saqlanadigan import tovarlar.

Modellar solishtirilganda ular orasidagi tafovutlarni ko'rishimiz mumkin (7-ilovaga).

2020-yilning birinchi yarmida mobil do'konlardan foydalanuvchilarining ulushi "uchinchchi toifa" dagi shaharlarda 50% atrofida barqarorlashishda davom etdi. 2020-yilning birinchi yarmida mobil do'konlardan foydalananuvchilar ulushi "uchinchchi toifa" dagi shaharlarda 50% atrofida barqarorlashishda davom etdi.

Hozirgi vaqtida bojxonada saqlash modelida transchegaraviy elektron tijoratni amalga oshirishga bir qator hududlarga ruxsat berilgan. Bu hududlarda transchegaraviy elektron tijoratni amalga oshirishga ruxsat berilganligi sababli elektron tijorat boshqa hududlarga nisbatan ancha rivojlangan bo'lib, ushbu hududlar orqali mamlakatimiz tomonidan olib kelinadigan mahsulotlar boshqa hududlarga tarqatiladi. Bugungi kunda korporativ



veb-sayingizni yaratish ham muhim vazifadir, savdo-sotiqning muvaffaqiyatli rivojlanishi va ilgari surilishi uning to'g'ri echimiga bog'liq. Bunday sayt, birinchi navbatda, aloqa siyosatini amalga oshirish xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirishga imkon beradi, chunki Internetda reklama ko'pincha arzon va foydalidir. Shuningdek, bugungi kunga kelib xorijiy mamlakatlarda kichik biznes subyektlari tomonidan onlayn vositalardan foydalanish jihatlari ham yuqori darajada (4-jadvalga qarang).

4-jadval: Tadbirkorlik subyektlari tomonidan onlayn vositalardan foydalanish (%)^[15]

	Fransiya	Italiya	Germaniya	B.Britaniya	Niderlandiya	Shvesiya	Polsha	Irlandiya	Ispaniya
Tovar va xizmatlarni namoyish etish	73	78	78	83	83	81	83	76	84
Korxona haqida ma'lumot (chegirmalar, ish vaqt va boshqalar)	71	66	80	84	87	77	84	79	83
Reklama va bozorga olib chiqish	71	77	82	89	77	79	86	77	88
Mijozlar va yetkazib beruvchilar bilan aloqa	67	57	63	86	72	71	79	74	84
Mahsulotlar va xizmatlarni sotish	42	45	45	73	74	65	64	63	70
Biznes jarayonlarni boshqarish (moliya va boshqalar)	10	17	22	40	36	32	35	35	46
To'lovlarni qabul qilish va jo'natish	25	-	33	62	53	57	56	55	66

XULOSA VA TAKLIFLAR

Rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes subyektlari tomonidan onlayn vositalardan foydalanish darajasi ancha yuqoridir. Tovar va xizmatlarni namoyish etish borasida, reklama va bozorga olib chiqish, Biznes jaray-onlarni boshqarish (moliya va boshqalar), Mijozlar va yetkazib beruvchilar bilan aloqalar bo'yicha Ispaniya, Polsha va Buyuk Britaniya davlatlari onlayn vositalardan foydalanish darajasi bo'yicha ancha rivojlangan. Mahsulotlar va xizmatlarni sotish bo'yicha esa, Buyuk Britaniya, Niderlandiya va Ispaniya davlatlari yuqori ko'satskichlarga egadir. Xorijiy mamlakatlarda asosiy biznes jarayonlarini raqamlashtirish yirik va kichik kompaniyalar uchun samaradorlikni oshirishning kuchli vositasi bo'ldi. Buxgalteriya hisobi va nazoratining sifatini sezilarli darajada oshirdi, mijoz bilan o'zaro hamkorlikning samarali vositalari yaratildi. Endi, bulut texnologiyalari, "Big Data" va boshqalarni keng tarqatish bilan bog'liq bo'lgan "ikkinchi to'lqin" raqamlashtirildi. Raqamli texnologiyalar har doim katta miqdorda sarmoya kiritishni talab etishi muhim - dasturiy ta'minotni xarid qilish, mutaxassislarni tayyorlash. Bundan tashqari, yangi texnologiyalarni joriy etish bosqichi uchun raqamli biznes texnologiyalari, birinchi navbatda, yirik va o'rta korxonalarda joriy etildi. Raqamli texnologiyalarni rivojlantirishning zamonaviy bosqichi bu vaziyatni o'zgartirib yubordi, Shu bilan birga, kengayib borayotgan kichik biznes korxonalari zamonaviy raqamli vositalardan faol foydalana boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mullajanov I.T. "Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati rivojlantirish" Innovative Development in Educational Activities VOLUME 3 Social Sciences & Humanities March, 2024.
2. Mamasoatov D.R. "Tadbirkorlik subyektlari tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish bo'yicha elektron savdo maydonchasidan foydalanishni takomillashtirish". Iqtisodiyot va ta'lif 24 (5), 394-399 2023-y.
3. Mamasoatov D.R. Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirish samaradorligiga tasir etuvchi omillarni aniqlash istiqbollari. Science and innovative development jurnali 5 (3), 122-133 2022-y.
4. AQShning federal darajada eksportini qo'llab-quvvatlash sohasidagi tashkiloti ma'lumotlari asosida Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.
5. <https://www.sba.gov> - Small business size standards.
6. <http://www.meti.go.jp/english>.
7. <https://www.jetro.go.jp/en/>.
8. <http://www.nexi.go.jp/en/>.
9. <http://english.kotra.or.kr>.
10. <http://www.mafra.go.kr/english/index.do>.
11. <https://www.export.gov.il/en>.
12. Elektron tijorat hisoboti. Xitoy–2020-yil.
13. Harvard Business Review.
14. E-commerce Report Global 2021.
15. Институт анализа инвестиционной политики. <http://xn--80aplem.xn--p1ai/analytics/Evropejskij-opty-onlajn-instrumenty-dla-malogo-i-srednego-biznesa>.

Yashil

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №5666955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.